


ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES | RESPUBLIKA KO'P TARMOQLI ILMYIY KONFERENSIYA

YANGI O'ZBEKISTON: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM

CONFERENCES.UZ 2023

DAVRIYLIGI: 2018-2023

DUNYODA BIRINCHI KASHF ETILGAN ELEKTR BATAREYA



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA XORIJY OLIY TA'LIM MUASSASALARI PROFESSOR-O'QUITUVCHILARI, YOSH OLIMLAR, DOKTORANTLAR, MAGISTRANTLAR VA IQTIDORLI TALABALAR

 TOSHKENT SHAHAR, AMIR TEMUR KO'CHASI, PR.1, 2-UY.

 +998 97 420 88 81
+998 94 404 00 00

 WWW.TAQIQOT.UZ
WWW.CONFERENCES.UZ

 MAY №52

**ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН:
ИННОВАЦИЯ, ФАН
ВА ТАЪЛИМ
8-ҚИСМ**

**НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН:
ИННОВАЦИИ, НАУКА
И ОБРАЗОВАНИЕ
ЧАСТЬ-8**

**NEW UZBEKISTAN:
INNOVATION, SCIENCE
AND EDUCATION
PART-8**

ТОШКЕНТ-2023



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” [Тошкент; 2023]

“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” мавзусидаги республика 52-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 май 2023 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2023. - 11 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар «Харакатлар стратегиясидан – Тараққиёт стратегияси сари» тамойилига асосан ишлаб чиқилган етти устувор йўналишдан иборат 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси мувофиқ:– илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари тахтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шоҳида Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

6. Журналистика

Тошбоева Барноҳон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг туган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети Хорижий тиллар факультети ўқув ишлари бўйича декан ўринбосари

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, DSc, Тошкент фармацевтика институти, Фармацевтик ишлаб чиқаришни ташкил қилиш ва сифат менежменти кафедраси профессори

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, DSc, Тошкент фармацевтика институти, Фармацевтик ишлаб чиқаришни ташкил қилиш ва сифат менежменти кафедраси профессори

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Проф. Хамидов Муҳаммадхон Ҳамидович «ТИИМСХ»

24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти)

25. География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпلامга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шаҳрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

АДАБИЁТ

1. Xusanova Mohinur Fazliddin qizi ZULFIYA SHE'RIYATI – TARBIYA O'CHOG'I SIFATIDA.....	7
2. Qurbonboyev Asadbek Ozodboy o'g'li AMALIY JISMONIY TAYYORGARLIKNI TASHKIL ETISH VA TA'MINLASH.....	9



АДАБИЁТ

ZULFIYA SHE'RIYATI – TARBIYA O'CHOG'I SIFATIDA

Xusanova Mohinur Fazliddin qizi

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti
Boshlang'ich ta'lim fakulteti 1-kurs talabasi
abbos.a_1990@mail.ru;
+998908908717

Annotatsiya: Maqolada Zulfiya ijodining yoshlar tarbiyasidagi o'rni tahlil qilingan, uning ijodidan ayrim na'munalar keltirilib ta'lim tarbiya sohasidagi roli va ahamiyati ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: badiiy ifoda, obrazlilik, falsafiy talqin, ijod, adabiy muhit.

She'riyat olami – qalb kechinmalarining aksidir. Har qanday inson xoh yosh, xoh katta bo'lsin she'riyat olamiga kirar ekan, biroz bo'lsa-da hissiyot olamiga oshno tutinadi. O'tayotgan umrining qanday maqsadda va qanday holatda kechayotgani beixtiyor his qiladi. Kingadir xayolan achinadi, dardiga hamdard bo'lgandek his qiladi. Bu borada o'zbek ayol-qizlarining tom ma'nodagi timsollaridan biri – Zulfiya ijodini ham namuna sifatida ko'rsatish mumkin. Zulfiya Isroilova qalamiga mansub ijod namunalari bugungi kunda umumta'lim maktablari uchun „Adabiyot“ darsliklaridan o'rin olishi va yosh avlod tarbiyasiga qo'shayotgan hissasi ham beqiyosdir.

“Badiiy adabiyot insonning qalb kechinmalari, orzu-istaklarini o'zida aks ettiruvchi o'ziga xos san'at ekan, shu bois ham unda ijodkor estetik ideali, o'ziga xos hayot tarzi ifodalanadi. Bu borada, ayniqsa, she'riyat alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, so'nggi yillar o'zbek lirikasida rang-barang she'riy shakllar orqali hayotni, inson umri va uning qismatini ifodalovchi, qadr-qimmatini ulug'lovchi bir qancha badiiy kashfiyot darajasidagi asarlar yaratildi”. [2.45]

Zulfiya Isroilova she'rlaridagi o'zbekona siymo, undagi oqilalik, hayo, irodalilik kabi ibrat olsa arziydigan ma'nolarni ko'rishimiz mumkin. Agar atoqli shoira ijodining birgina umumta'lim maktabi 6- sinf „Adabiyot“ darsligida berilgan “Men o'tgan umrga” she'riga nazar tashlasak undagi ma'no mazmun har qanday davr uchun har qanday inson va har qanday she'riyat ixlosmandi uchun, olam-olam ma'no kasb etishini ko'rishimiz mumkin:

Hayot kitobimni behos varaqlab, men o'tgan umrga achinmay qo'ydim.

Tabassum o'rnida kuldim charaqlab, suyish kerak bo'lsa, telbacha suydin. [3. 82]

Ha, shoira yashagan davr notinch davr edi, unda ijod erkinligi, yashash erkinligi degan tushunchalar xayol edi, xolos. Shunday ekan, shoira o'z hayotini bir kitob deya uni bexosdan varaqladi va unga achinmay qo'ydi, insonga xos achinish, miyig'ida nim tabassum qilish o'rniga u baralla kuldi va hayotning o'zi uchun in'om etgan Yashash baxtini, farzandlarini, umr yo'ldoshini telbalarcha sevib dunyo va mavjud tuzum tashvishini bir zum bo'lsa-da unutdi. U hissiyotga, qalbgaga oshno bo'ldi. „Uning jahon minbarida yangragan she'rlari sharq ayolining aql-u zakosi, fazl-u kamolining yorqin ifodasi sifatida millionlab she'riyat muxlislariga odamiylik, muhabbat va sadoqatdan saboq bergan“ [1.108].

Men o'tgan umrga achinmay qo'ydim,

Hech kimga ko'rmayin umrimga o'xshash:

Suydim,

Erkalandim,

Ayrildim,

Kuydim,

Izzat nima bildim.

Shu-da bir yashash! [3.82]

Bunda shoiradagi ham mehribon ona, ham oqila ayol sifatidagi insonlarga bo'lgan muhabbati aks etgan. O'z hayotidagi qiyinchiliklari hech kimning hayotida korishini istamaydi. Suygani, erkalangani, ayrilgani va kuyganini bildiradi. Yashash baxtidan mamnunligini faqat so'nggi



misralardagi ifoda etadi.

Shoira ijodi yurtimiz mustaqillikka erishgach yanada qadr topdi, yuksaklarga parvoz etdi, biz tahlilga tortayotgan yuqoridagi she’rda ta’kidlaganidek, izzat topa oldi. Aslida, hurmat topib yashashning o’zi baxt emasmi!

“Agar biz O’zbekistonimizni dunyoga tarannum etmoqchi, uning qadimiy tarixi va yorug’ kelajagini ulug’lamoqchi, uni avlodlar xotirasida boqiy saqlamoqchi bo’lsak, avvalambor buyuk yozuvchilarni, buyuk shoirlarni, buyuk ijodkorlarni tarbiyalashimiz kerak. Nega deganda ulug’ adib Cho’lpon aytganidek, adabiyot yashasa – millat yashaydi” [1.108].

Shunday ekan, buyuk o’zbek shoirasi, sadoqat va vafo timsoli – Zulfiya ijodi o’zbek ayollarining qanoati, hayosini jahon hamjamiyatiga oshno etdi.

Xulosa qilib ta’kidlash mumkinki, umumta’lim maktablari „Adabiyot“ darsliklarida Zulfiya ijodini chuqur tahlillash orqali o’quvchilarda jahon minbaridan yangragan Sharqona ayol siymosini o’quvchi yoshlar qalbiga singdirish, insoniy fazilatlarini kamol toptirish, qalblarida oqila, mehribon, irodali ayol siymosiga hurmat hissini tarbiyalagan bo‘lar edik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent, „Ma’naviyat“, 2008.
2. Matyakupov S. She’riyatda dialog yaratish mahorati. Toshkent, „Muharrir“, 2013. 45-bet.
3. Ahmedov S., Qo’chqorov R., Rizayev Sh., Adabiyot. Umumta’lim maktablarining 6- sinf o’quvchilari uchun darslik-majmua. Toshkent, „Ma’naviyat“ 2013. 82- bet.
4. Web sahifalar: www.ziynet.uz, www.e-adabiyot.uz.



AMALIY JISMONIY TAYYORGARLIKNI TASHKIL ETISH VA TA'MINLASH.

Qurbonboyev Asadbek Ozodboy o'g'li
Buxoro davlat pedagogika instituti
Harbiy ta'lim fakulteti2-bosqich talabasi.
+998941472325
Asadbek.@bk.ru

Annotatsiya. Amaliy jismoniy tayyorgarlik insonni kuchlilik, o'zini himoya qilish, qurollardan foydalanish, qo'l jangi malakasini va ko'nikmalarini oshdan iborat.

Kalit so'zlar: Kuch, epchllik, tezli, mahorat, chidamlilik.

Mustaqillikka erishish munosabati bilan O'zbekiston umumta'lim maktablari tizimida tub o'zgarishlar sodir bo'ldi, to'la ko'lamli islohotlar o'tkazilib, unda kelajak avlodning ma'naviy-axloqiy va vatanparvarlik hamda jismoniy rivojlanishiga alohida urg'u berildi. Hozirgi bosqichda shaxs ta'lim va tarbiyasining maqsadi milliy istiqloq g'oyasiga mos ravishda har tomonlama fidoiy va vatanparvar barkamol shaxsni shakllantirishdan iborat hamda u umumiy demokratik jarayonlar bilan bog'liqlikda insonlar ongida yangi ilg'or qadriyatlarni qaror toptirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning qoidalariga muvofiq holda yangi o'quv rejalari, dasturlarining zamonaviy didaktik ta'minotini ishlab chiqish, Oliy o'quv yurtlari faoliyatida milliy tajribalarning tahlili va jahon miqyosidagi yutuqlar asosida yangi darsliklarni, o'quv adabiyotlarini yaratish vazifalari ko'rsatib o'tilgan.

Amaliy jismoniy tayyorgarlik fani jangovor tayyorgarlikda asosiy o'rin egallaydi. O'zbekiston Respublikasi harbiy xizmatchilari shaxsiy tarkibini jangovorligini oshirish uchun xizmat qiladi.

Amaliy jismoniy tayyorgarlik fanining maqsadi: jismoniy tayyorgarlikni ta'minlab berish. Harbiy xizmatchilarning yuklatilgan vazifalarini bajarishda mukammallikka erishish. Jismoniy qiyinchiliklarni yengib o'tish ruhida tarbiyalash va jismoniy sifatlarni oshirish.

Harbiy xizmatchilarning jismoniy tayyorgarlikdagi umumiy vazifasi shundaki:

- har doim, kundan-kunga quvvat, chidamlilik, chaqqonlik va tezlikni oshirib borish va takomillashtirish.

- to'siqlardan o'tish, qo'l jangi, suzish harbiy jismoniy tayyorgarlikni belgilangan joydan boshqa bir joyga piyoda harakatlanish bilan ko'nikmalarni o'zgartirish.

- jismoniy tayyorgarlikni yaxshilash, sog'lig'ini mustahkamlash, organizmni chidamliligini oshirish, nohushliklar vaqtida harbiy professional darajaga yondashish.

Jismoniy tayyorgarlik davomida nazariy ko'nikmalar uslubiy ishlarni tashkillashtirishni takomillashtira boradi. Jismoniy tayyorgarlik harbiy maxsus tayyorgarlikni ma'naviy-ruhiy sifatlarni shaxsiy tarkibni tarbiyalab boradi. Harbiy intizomni tarbiyalab va qiyinchiliklarni yengishga ko'nikmalar hosil qiladi.

Jismoniy tayyorgarlikni asosiy qismini jismoniy mashqlar tashkil etadi. Ularni bajarishda gigiena qoidalariga rioya qilgan holda ob-havoni hisobga olib borish lozim.

Yoshlarni O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlariga xizmatga tayyorlashda o'quv muassasalarda o'quv – moddiy bazani yaxshilash zarur. Amaliy mashg'ulotlar o'quv guruhlar bilan Harbiy sport inshootlari, Oliy o'quv yurtlari, o'rta o'quv muassasalari, mahalliy garnizon hududida olib boriladi. Har – bir amaliy mashg'ulotga talablar kafedra tomonidan ishlab chiqilgan topshiriq orqali olinadi.

Mashg'ulot zarur me'yoriy – texnik hujjatlar, adabiyotlar va o'quv moddiy bazasi modellari bilan ta'minlanadi. Amaliy mashg'ulot davomida (topshiriqlar ishlab chiqadi) inshoot va maydonni loyihalashtirish rejalari, eskiz va o'quv joylari elementlari modellari topshiriqlari ishlab chiqadi. Har xil materiallar va ish hajmining hisob talabini bajarish;

Inshoot elementlari va jihozlari o'rnatish, ishonchligi, sport inventarlari muddati analiz qilinadi;

Tirlar, maydonlar, shaharchalar, to'siqlar yo'lagi, kross va marsh brosk o'tkazish joylarini tanlash, granata uloqtirish joyi joylashishi rejalashtiriladi; qurilish ishlari ketma-ketligi aniqlanadi. Amaliy mashg'ulotlar uchun joy kafedra tomonidan aniqlanadi.

Talabalarning mustaqil ishi tavsiya qilingan adabiyotlarni o'rganish va kafedra topshirig'ini



bajarishi mustaqil tayyorgarlik soati singari darsdan tashqari vaqtda olib boriladi. Kurs yakunida obyektlarni ishlatishda xavfsizlikni ta'minlash tadbirlarini olib borish, qurilish ishlarini obyektlarni aniqlash, hisoblarni olib borish, maxsus adabiyotlardan foydalanishni bilish, Harbiy sport inshootlari va ularni ishlatishga talablar va loyihlashtirishning asosi haqida talabalarning bilimlari tekshirilib baholanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Yo'ldashev S. O'zbekiston Respublikasi yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorlash o'quv dasturi. 2005 -156 bet
2. Y.Z.Abdullayev Harbiy sport va sport uskunalari Buxoro 2010
3. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi qo'shinlarida jismoniy tayyorgarlikni tashkillashtirish va olib boorish bo'yicha qo'llanma Toshkent 2013.
4. Ortiqov O. Sh.Ubaydullayev Chaqruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik. Ilm- ziyo-2007.
5. L.L.Nurulloyev Amaliy jismoniy tayyorgalik darslik Kamolot 2023 yil
6. L.L.Nurulloyev Amaliy jismoniy tayyorgalik va Harbiy sport inshootlari darslik Kamolot 2022 yil

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: ИННОВАЦИЯ, ФАН ВА ТАЪЛИМ 8-ҚИСМ

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.05.2023

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000